



International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies

International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies - is an international conference platform under open access policy. The conference is led by international expert members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed, edited by authors and evaluated on its own scholarly merits and research integration. Publishing and joining on the proceeding of the International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies will ensure publishing experience and indexing possibilities on various global indexing.

Hematological Examination Results in Cows

M. A. Sulaymonov (PhD)

DVM, Associate Professor, Samarkand State University of Veterinary
Medicine, Livestock, and Biotechnology

Boymirzayev Bahridinjon, Abdulazizov Muhammadiso

Student, Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock,
and Biotechnology

ABSTRACT

Changes in the composition of soil and water caused by unfavorable changes in the ecological situation on the coast of the island and salinization of fertile lands beyond the norm cause a deficiency of macro-and microelements necessary for the body of cattle in forage plants. Among the cattle kept in these areas, trace elements such as iodine, cobalt, copper, manganese, iron, zinc, phosphorus, and calcium deficiency are the cause of many cases of alimentary infertility in dairy cows.

KEYWORDS: dispensary, alimentary infertility, hematological parameters, hemoglobin, erythrocytes, alkaline reserve, trace elements, nutrition, morphological parameters.

Bugungi kunda Respublikamizda chorvachilikni rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar aholining yashash tarzini takomillashtirish, ularni ijtimoiy himoya qilish bilan birgalikda va ularning yuqori sifatli oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishning muhim qismidir. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 25.12.2024 yil № PQ- 455 sonli qarorida O'zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunida "Chorvachilik va tuyachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va tadbirkorlik sub'ektlari ijtimoiy soliqdan ozod qilinadi" deb belgilab qo'yildi. Respublikamizning barcha hududlarida chorvachilik tarmog'ida bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilib, xususiy mulk ustuvorligi ta'minlanmoqda. Ayni damda qishloq joylarida aholi bandligini oshirish, kichik beznes turlarini rivojlantirish, ichki bozorni go'sht, sut va sut mahsulotlari bilan ta'minlashning muhim manbasi sifatida qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik kabi sohalar ham keng rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida chorvachilik tarmog'ida bozor munosabatlarini qaror topdirishga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilib, xususiy mulk ustuvorligi ta'minlanmoqda. Jumladan, respublikamizning barcha viloyatlari qatorida Orol bo'yi hududlarida

ham ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy, tashkiliy va hududiy asoslari mustahkamlanib bormoqda. Bunga amal qilgan holda biz ham ilmiy izlanishlarimizda ushbu hududdagi chorvachilik xo'jaliklarida davom ettirdik.

Orolbo'yi hududlarida joylashgan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklariga amaliy yordam berish maqsadida Xorazm viloyati fermer xo'jaliklarida dispanserlash tadbirlarini o'tkazib, xo'jaliklarda mavjud bol'gan qoramollarning, shu jumladan, tug'ish yoshidagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlari o'rganildi. Tekshiruvlar davomida sigirlarning yillik sut mahsuldorligi o'rtacha 3000 kg.ni, 100 bosh sigirdan buzoq olish o'rtacha 60-65 boshni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa xo'jaliklarda pushtdorlik va mahsuldorlikning pastligi, sigirlarni saqlash va oziqlantirish talablari me'yor darajasiga javob bermasligini ko'rsatadi. Xo'jaliklardagi sigirlarda dispanser tadqiqotlar davrida hayvonlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzilishlariga xos klinik belgilar bilan birgalikda, sigirlarning 35-40 foizida alimantar bepushtliklarga xos klinik belgilarning borligi aniqlandi. Ayniqsa, ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), shilliq pardalarning oqarishi, oxirgi dum umurtqalarining so'rilishi, teri qoplamasini yaltiroqligining pasayishi va hurpayib to'kilishi, terining quruqlashishi, terining elastikligining pasayishi, tishlarni qimirlashi, tashqi taasurotlarga javob reaksiyasining pasayishi kabi klinik belgilar alimantar bepushtlikning simptomlari hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklardagi sigirlar asosan bir joyda bog'lab boqilganligi hisobiga sigirlarni semizlik darajasi o'rtadan past ekanligi, sigirlar orasida gipovitaminozlar, endometrit, mastit, servis davrining uzayishi, jinsiy a'zolarining tug'ishdan keyin o'z muddatida tiklanmasligi, qisir qolish, bachadon va tuxumdonlarni etishmovchiligi qayd etildi.

Sigirlardagi bepushtliklarning sabablarini o'rganish va izlanishlarimizni ilmiy tasdig'ini asoslash uchun ulardan qon namunalari olindi (1-rasm).

Sigirlarni bug'ozligini tekshirish va ulardan qon olish jarayonlari.

1-rasm.



Sigirlar alimantar bepushtliklarida qondagi o'zgarishlarni o'rganish maqsadida Xorazm viloyati fermer xo'jaliklaridagi 2-5 yoshli sigirlardan olingan qon namunalari gematologik tekshirishlardan o'tkazildi (2-rasm).

2-rasm



Dispanser tekshirishlar davomida sigirlar qonidagi eritrotsitlar soni tekshirildi 2 yoshli tanalarda o'rtacha 5 mln/mkl, 4 yoshli sigirlarda 5,3 mln/mkl va 5 yoshli sigirlarda 5 mln/mkl.ni (me'yor 5,0-7,5 mln/mkl) tashkil etdi (1-jadval).

Sigirlar qonidagi gemoglobin konsentratsiyasi tekshirilganda 2 yoshli tanalarda o'rtacha 100 g/l, 4 yoshli sigirlarda 95 g/l va 5 yoshli sigirlarda 80 g/l ni (me'yor 99 -129 g/l) tashkil etdi (1-jadval).

Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirilganda 2 yoshli tanalarda o'rtacha 73 g/l, 4 yoshli sigirlarda 68 g/l va 5 yoshli sigirlarda 69 g/l ni (me'yor 72-86 g/l) tashkil etdi.(1-jadval).

Sigirlar qonidagi glyukoza miqdori 2 yoshli tanalarda o'rtacha 3 mmol/l, 4 yoshli sigirlarda o'rtacha 2,95 mmol/l va 5 yoshli sigirlarda esa o'rtacha 2.8 mmol/l (me'yor 2,22-3,33 mmol/l) tashkil etdi (1-jadval). Sigirlar qondagi glyukoza miqdorining kamligi sut berish davrida sigirlarning energiyaga nisbatan ehtiyojlarini qondirish darajasining pastligi bilan izohlash mumkin.

Sigirlarning qon zardobidagi ishqoriy zahira miqdori 2 yoshli tanalarda o'rtacha 60 hajm % SO₂ ni tashkil etgan bo'lsa, 4 yoshli sigirlarda o'rtacha 50 hajm % SO₂ ni va 5 yoshli sigirlarda o'rtacha 48 hajm %SO₂ ni tashkil etdi (1-jadval).Sog'in sigirlar qonidagi ishqoriy moddalar miqdorining kamayishi ular organizmida atsidoz holatining borligidan dalolat beradi.

1-jadval. Tajribadagi sigirlar qonining morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari (n=10.)

Xudud	Hayvonlar	Eritrotsitlar mln/mkl	Gemoglobin, g/l	Umumiy oqsil, g/l	Glyukoza, mol/l	Ishqoriy zahira, hajm% SO ₂
Xorazim viloyat	Tana 2 yoshli	6	100	73	3	60
	Sigir 4 yoshli	5,3	95	68	2,95	50
	Sigir 5 yoshli	5	80	69	2,8	48

Xulosa.

Despanserlash xulosalariga ko'ra, Xorazim viloyati fermer xo'jaliklaridagi sigirlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvining buzilishi sog'in sigirlarda laktatsiyaning boshlang'ich davrida rivojlanib, gipogemoglobinemiya (80 g/l), hamda ishqoriy zahiraning kamayishi (48 hajm% SO₂) bilan tavsiflanadi. Bunday ko'rsatkichlar sigirlarda fiziologik ko'payish jarayoning buzilishiga, shuningdek kuyga kelgan sigirlarda jinsiy reflekslarning sust namoyon bo'lishi, kesuvchi tishlar

va shox o'simtalarining qimirlab qolishi, ishtahaning o'zgarishi hayvonlar organizmida bir vaqtning o'zida bir nechta meniral moddalar hamda vitaminlar almashinuvining buzilishi va natijada alimentar bepushtliklarning ko'plab kuzatilishiga olib keladi.

Modda almashinuvining bunday ko'rinishlarini va alimentar bepushtliklarni oldini olish maqsadida fermer xo'jaligi veterinariya vrachi va rahbarlariga hayvonlarni saqlash, oziqlantirish va parvarishlashga oid kerakli ko'rsatmalar berildi.

Adabiyotlar:

1. Eshburiyev B.M., Abdumalikova M.Q., Sulaymonov M.A. – Buzoqlar D gipovitaminozi (raxit). Veterinariya Meditsinasi jurnali, maxsus son. “Veterinariya fanlari doktori, professor N.SH.Davlatov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlangan “Zamonaviy xirurgiyaning dolzarb muammolari, ularning yechimlari va istiqboldagi vazifalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil 15-iyun, 97-99 betlar.
2. Sulaymanov Maruf Etiology and symptoms of disorders of vitamin and mineral metabolism in cows in the conditions of the Aral Sea region Asian journal of Multidimtnasional Research 5.May 2019.
3. Abdumalikova M. Q., Sulaymonov M. A. Gipovitaminoz D ning chorvachilikdagi iqtisodiy zararini oldini olish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, Veterinariya meditsinasi jurnali 2023 yil,6 -oktabr.
4. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., &Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocalcemia in productive cows. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 115-120.
5. Sulaymonov, M. A., Norboev, K. N., Alikulov, Z. I., &Abdumalikova, M. K. Productive Cows Nutrition in the Prevention of Infertility Monocalcium Phosphate, Introvit a+ WS and Ovaritropin the Influence of Drugs. *International Journal on Integrated Education*, 4(2), 130-132.
6. Сулаймонов, М., Абдумаликова, М., &Сидиков, Б. (2021). Влияние IntrovitA+Ws И Монокальцийфосфата На Профилактику Витаминно-Минерального Дефицита Бесплодия У Коров. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*, 2(5), 171-173. <https://doi.org/10.47494/cajmns.v2i5.313>
7. Sulaimonov, M. A., Abdumalikova, M. K. ., &Sidikov, B. T. . (2021). The Action of Introvit A + WS and Monocalcium Phosphate in the Prevention of Vitamin and Mineral Deficiency of Infertility in Cows. *Middle European Scientific Bulletin*, 17, 61-63. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.17.766>